

## **“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadorining 14-son qarori**

2022-yil 18-may

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 38-uy.

### **KUN TARTIBI:**

“O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisining investitsiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi – boshqaruv a‘zosini tayinlash.

#### **Kun tartibidagi masala yuzasidan **qaror qabul qilindi:****

1. Italiya fuqarosi Djordjio Veronezi “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisining investitsiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi – boshqaruv a‘zosi etib tayinlansin va u bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomasi tuzilsin.

2. Jamiyat nomidan boshqaruv raisining investitsiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi – boshqaruv a‘zosi Djordjio Veronezi bilan mehnat shartnomasini o‘rnatilgan tartibda imzolash vakolati Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi S. Xolxo‘jayevga berilsin.

3. Xorijiy mutaxassis Djordjio Veroneziga faoliyati davomida ish haqi to‘lanmasligi, faqatgina O‘zbekiston Respublikasiga amalga oshiriladigan tashriflar bilan bog‘liq, xarajatlar (aviachipta va mehmonxona) va zarur hollarda, investitsiya loyihalari doirasida xorijiy kompaniyalardan texnologik maslahatlar olish uchun to‘lovlar (dastlabki budjetni taqdim etish sharti bilan) “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan qoplanishi belgilansin.

*Qaror rasmiylashtirilgan sana: 18.05.2022-yil*